

## **“Sog‘lom ona va bola yili” davlat dasturini amalga oshirilishida avtotransportchilar faol ishtirok etmoqdalar**

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog‘lom va ma‘nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi. "Sog‘lom ona – sog‘lom bola" dasturi amalga tadbiiq etilib, farzandlarimiz va xalqimiz baxti uchun, kelajagimiz uchun qilinayotgan bu ezgu ishlar izchillik bilan davom etib, tobora kengayib borayotgani, yuksak samaralar berayotgani quvonarlidir.

Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh etish doirasida yuqori samaradorligi butun dunyoda e‘tirof etilgan ona va bola sog‘lig‘ini muhofaza qilishning milliy modeli shakllantirildi. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inlari joylardagi onalar va bolalarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari kengaydi.

O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Toshkent shahar hududiy bo‘limi tomonidan, Toshkent shahridan ro‘yxatdan o‘tgan yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalariga Prezidentimizning 2016 yil 9 fevraldagi PQ-2487-son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturining ijrosini ta‘minlash maqsadida, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanida joylashgan “MURUVVAT AZIZ” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ikki nafar yosh onalar Radjabova Sojida hamda Axadova Mavjudalarga moddiy yordam tariqasida Chortoq sanatoriyasiga 2 100 000 so‘mlik shartnoma tuzilib sog‘liklarini tiklab, dam olishlari uchun sharoit yaratib berildi.

Avtotransportchilar tomonidan bunday xayrli ishlar olib borilayotganligi barchamizni hursand qilishi tabiiy.

Ayol sog‘lom bo‘lsa va u ona bo‘lib, sog‘lom farzandni bag‘riga bossa, bu bizning hayotdan ko‘rgan mehrimiz, topgan oqibatimiz, yetgan baxtimizdir. Prezidentimizning har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lida ko‘rsatayotgan ulkan g‘amxo‘rliklarining samarasi o‘laroq, bugun bizning yurtimizda “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” umumxalq ezgulik harakati keng quloch yoygan. Ta‘kidlash joizki, xalqimizga xos bo‘lgan onaga, otaga sharqona ehtirom va izzat ko‘rsatishdek ibratli qadriyatlar istiqlol yillarida yangicha mazmun va ma‘no kasb etmoqda.

Bugun o‘zbek ayoli, Yurtboshimiz ardog‘idagi dunyodagi eng baxtli ona, ayol. Uning farzandlari, orzu-havasi dunyoda hech kimdan kam bo‘lmay taraqqiy etayotgan mustaqil Vatan bilan baravar yuksalmoqda.